

semantik birlik deb qarashga olib keladi. Shu sababli, birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda iboraning ichki sintaktik qurilishi

ko‘zda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo‘ladi.

#### Adabiyotlar tahlili va metodlar

Frazeologiya tilshunoslikda mustaqil fan sifatida yaqinda paydo bo‘lgan. Tilshunoslikda frazeologiya masalalari bo‘yicha bir qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu sohaga salmoqli hissa qo‘shtan olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Eng samarali izlanishlar dastlab rus olimlarining: V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, N.N.Amosova, I.I. Chernisheva, A.M. Babkin, topdi [6.235-238.]. G‘arb tilshunosligida ustozi F.de Sossyur g‘oyalaridan ilhomlanib frazeologiya tahliliga bag‘ishlab yaratilgan Sharl Balli asarlari katta ahamiyat kasb etdi [7.11534 -11536]. Keyinchalik frazeologik birliklarning semantikasigabag‘ishlangan A. Kouvi, J.Fyors, J.Sinkler kabi olimlarning tadqiqotlarida bu fikrlar rivojlantirildi va asoslab berildi. Olam lisoniy manzarasi tushunchasini yoritishga asos bo‘lgan dastlabki izlanishlar V.fon Xumbold va L.Vaysgerberlarga tegishlidir. Keyinchalik bu yo‘nalish A.A.Potebnya, E.Sepir, B.Uorf, Yu.D.Apresyan, V.A.M aslova, V.N.Teliya kabi tilshunoslar ishlarida batafsil ochib berildi. O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar dastlab E.D.Polivanov, keyinchalik Sh.U.Rahmatullayev, M.E.Umarxo‘jayev, A.E.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, X.Berdiyorov, G.I.Ergasheva tadqiqotlarida o‘rganilgan [5.524-525.]. Mazkur olimlar frazeologizmlarni Grammatik, semantik funksional-uslubiy jihatlardan o‘rganishdi. Turkiyshunoslikda ham frazeologizmlar grammatic-qurilish, leksik-semantik tarafdan o‘rganilib, qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, S.K.Kenesbayev, F.R.Axmetjanova, R.E.Jaykasova, R.M.Tayeva (qozoq tilida), G.A.Bayramov (ozarbayjon tilida), Ch.G.Sayfullin (uyg „ur tilida), S.Navro‘zboyeva (qoraqalpoq tilida)va S.I.Muratovning “Turkiy tillarda turg‘un so‘z birikmalari” ishida frazeologizmlar tadqiq qilindi.Xususan, o‘zbek tilining FBlari (frazeologik birliklari) ham har taraflama tadqiq etildi. Sh.Raxmatullayev, Y.D.Pinhasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainovlarning nomzodlik dissertatsiyalarini o‘zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar qatoriga kiritish mumkin. Agar Sh.Raxmatullayevning nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tiliadagi fe'l iboralarning Grammatik xususiyatlarini o‘rganish ishi boshlab berilgan bo‘lsa, olim 1966 yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi va shu asosda e’lon qilingan “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasini bilan tilimizdagи FBlarni lug„aviy birlik sifatida o‘rganishni asosladi [8.264]. Bu ishda FBlardagi polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, omonimiya hodisalari boy faktik material tahlili asosida chuqur tadqiq etilib, iboralarning lug„aviy birlik sifatidagi boshqa belgi-xususiyatlarini tekshirishga yo‘l ochilgan.Frazeologik birliklarni o‘rganishning metod va usullari juda ko‘p[1,56]. Xususan, struktural-tipologik metod, variatsion

metod, kontekstologik metod, komplikativ metod va boshqa shu kabi metodlar frazeologik birliklarni o'rghanishda juda muhimdir [2,368]. O'zbek tilshunosligida frazeologiksiononimiya masalalari ham atroflicha o'rghanilgan, deb hisoblash mumkin. M.Vafoyevaning "O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili" nomli nomzodlik dissertatsiyasida keltirilgan izohlardan frazeologik sinonimlar, ularning qo'llanilish darajasi haqida to,liq ma'lumot olish mumkin. M.Vafoyevaning nomzodlik ishida qayd etilishicha, o'zbek tilshunosligida frazeologiyaga doir dastlabki ishlar XX asrning 50-yillari boshida yuzaga kelgan bo'lsa, frazeologik sinonimlarni o'rghanish 60-yillardan boshlandi [10, 95]. Rus eronshunoslarning ta'kidlashlaricha, rus tilida hambarqaror so'z birikmalari mavjudbo'lib, ulardan foydalanish orqalinutqdagi fikr ma'nosianglashiladi [4,67]. Frazeologik birliklar

semantik jihatdan bo'linmaydi. Ularning tarkibiy qismlari boshqa so'zlar bilan almashtirilmaydi yoki to'ldirilmaydi [3,221]. Mazkur ishlarda frazeologiya doirasi keng va tor tushunilgan Frazeologiyani keng tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlarni kirmsalar, uni tor ma'noda tushunuvchi olimlar faqat iboralarning o'zi bilan cheklanadilar.

#### Natijalar va muhokamalar

Umuman, ibora tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish o'z kuchini saqlaydi, faqat ichki bo'ladi. Masalan: ko`ngli og'ridiiborasi ichki sintaktik qurilishi jihatdan gapga teng, ayni shu iboraning ko`nglini og'ritmoq varianti esa birikmaga teng. Bunday sintaktik qayta qurilish esa fe'l iboraga nisbat yasalishi munosabati bilan yuz beradi; o'timsiz fe'l bosh kelishikdagi ot bilan munosobatga kirishgan bo'lsa, orttirma nisbat yasovchisini olib, o'timliga aylangach, ot komponentning bosh kelishigi tushum kelishigiga almashadi. Ko'rinaridiki, bir komponentdagi grammatik o'zgarish ikkinchi komponentga ham shunga muqobil o'zgarishni talab qiladi, natijada gapga teng holat birikmaga teng holatga o'tadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida bo'la oluvchi iboralar anchagina: "chehrasi ochildi" - "chehrasini ochmoq" kabi. Orttirma nisbat yasalishi doim sintaktik qurilishni o`zgartirib yubormaydi. Masalan: hayratda qolmoq, hayratda qoldirmoqiborasida nisbat yasalishi sintaktik quri-lishni-birikmaga teng holatni o`zgartirmaydi, bu yasalish tufayli ikkinchi variant o'timlilik kashf etadi. Bunday grammatik o'zgarishlar iboraning faqat ifoda planida ro'y berib, uning mazmun planiga ta,sir qilmaydi. Gapga tenglikdan birikmaga tenglikka va aksincha, aylanish iboralarning ma,lum bir qis-migagina xos bo'lib qolgan iboralar doimo bir sintaktik qurilish shaklida namoyon bo'ladi. Masalan: ko`ziga cho'p solmoq, ko`zini bo'yamoq, ko`z o'ngidakabi iboralar doim birik-maga teng qurilishli shaklda: ko`zi yetdi, ko`zi ilindi, ko`zi ko'r-qulog'i karkabi iboralar doim gapga teng qurilishi shaklda ishlataladi. Misollardan ko'rinaridiki, ichki sintaktik qurilishi birik-maga teng iboralar ham, gapga teng iboralar ham yig'iq va yoyiq bo'ladi, odatdagi sintaktik bog'lanishlarda qanday bo'laklar qatnashsa, iboralar tarkibida ham xuddi shunday

bo`laklar qatnasha-di. Iboraarning paradigmatik shakllari (turlanish, tuslanish kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboraarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil qiladi. Fe'l iboraarning ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslanadi: bosh egdim, bosh egsinkabi. Agar iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora tuslana olmaydi, doim 3-shaxs shaklida turadi. Bu ikki tur fe'l iboralar tuslanishi jihatdan farq qiladi, ammo mayl, zamon kabi kategoriyalarningformalarida o`zgarish har ikkisida paydo bo'laveradi: bosh egsam, ko'z tegsa, bosh egibdi, ko'z tegibdi kabi. Bunday iboraarning ko'pi bo'lishli va bo'lishsiz aspektida ham kelaveradi: bosh egaylik va bosh egmaylik kabi. Fe'l frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe'l so'z komponentidan tashqari, boshqa turkum so`zi ham qatnashadi. Bunday so`z komponent ko'pincha ot bilan ifodalanib, uning tarkibida egalik affiksi vositasida fe'l ibora uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: ko'zimni yog" bosdi, ko'zingni yog" bosdi, kozini yog" bosdi kabi. Gapga teng qurilishli iboralarda shaxs-son ma,,nosi tuslovchi bilan emas, balki egalik affiksi bilan ifodalanadi. Birikmaga teng qurilishli fe'l iboralarda esa shaxs-son ma,,nosini tuslovchi ham, egalik affiksi ham ifodalaydi. Bunda ikki holat mavjud:

1.Tuslovchi bilan egalik affiksi shaxs-sonda muvofiqlashib boradi: ko'nglimni uzdim, ko'nglingni uz kabi. Bunda ayni shaxs-son ifodasi ikki marta ifodalanadi.

2.Tuslovchi bilan egalik affiksi boshqa-boshqa shaxs-son ma,,nosini ifodalash uchun xizmat qiladi, shunga ko'ra har biri mustaqil o`zgaradi:

konglingni oldim, ko'nglingni olsin kabi.Ayrim iboralarga bu ikki holat birgalikda xos bo'ladi:

ko'nglingni yozdim, ko'nglimni yozdim kabi. Ot-komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksini o`zgartirib ishlatish sifat, ravish iboralarda ham mavjud:

ko'ngli bo'sh, og"ziga tolqon solib, dilini tirnab kabi.

Ba'zi iboralar sin-taktik qurilishiga ko'ra birikmaga teng bo'la turib, doim 3-shaxsda ishlatiladi. Masalan: boshidan oshib yotmoq iborasi faqat 3-shaxsda keladi, chunki tuslanishida narsa bilan bog`lanadi. Ba,,zi iboralar grammatik qurilishida doim 3-shaxs egalik affiksi qatnashadi, chunki egalik olib nisbatlanishida bunday ibora narsa bilan bog`lanadi: do'ppisi tor keldi, kalavaning uchini yo'qotmoq kabi. Bunday hodisa fe'l bo'lмаган frazeologik birliklarda ham mavjud: boshini yeb, ko'nglining kiri yo`q, ichi qora kabi. Ayrim iboralarda ot so'z komponentga egalik affikslarining faqat ko'plik shakllari qo'shiladi: gapimiz bir joydanchiqdi, gapingiz bir joydan chiqdi kabi. Faqat ko'plik tuslovchisini olib keladigan iboralar ham uchraydi: gapni bir joyga qo'ydik (qo'yishdi yoki qo'ydilar) kabi. Ot-so'z komponentga tugaydigan ayrim iboralar kelishikda o`zgaradi, son shaklini o`zgartiradi: ammamning buzog`i, ammamning buzoqlaridan, ammamning

buzog`ini; toshbag`ir, toshbag`irlar, toshbag`irlarga. Misollardan ko`rinib turibdiki, tuslanish egalik affiksi olib o`zgarishi odatda kishi bilan bog`lanish sodir bo`ladi, narsa bilan bog`lanishda esa doim 3-shaxs tuslovchisi yoki egalik affiksi keladi. Iboralarning sintaktik qurshovi. Sintaktik qurshov deganda iboralarning nutqda turli bo`laklar bilan bog`lanishi nazarda tutiladi [9, 47]. Iboraning biror sintaktik qurshovga ega bo`lishi uning turkumiga, ichki sintaktik qurilishiga, fe'l iboralarda fe'l so'z komponentning boshqaruviga va bu boshqaruvning ibora tarkibida reallashgan yoki reallashmaganligiga, ot-komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksiga bog`liq. Masalan: agar ibora gapga teng qurilishli bo`lsa, nutqdan ega olmaydi (chunki bunday bo`lak iboraning o`z ichida qatnashadi) ko`zi tindi, ichi qora kabi berishga yordam beradi. Xulosa Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, xalq yangi-yangi tushunchalarni nomlash, ifodalash, turli ijtimoiy holatlarni voqelantirish maqsadida, yoki mavjud tushunchalar, voqeliklarning turli qirralarini ochish niyatida shakl jihatidan qisqa, lekin chuqur ifodali ma`noga ega birliklarni yaratadi. Bu, albatta, o'sha xalqning ko`p yillik tajribasidan o'tgan, o'sha millat, elat, qavm uchun tushunarli bo`lgan iboralardir. Ushbu frazeologik birliklar odatda biron narsani nafaqat oddiygina nomlaydi, balki uning konnotativ (stilistik) bo`yoqdorligi, gapiruvchining borliqqa bo`lgan munosabatini ham baholaydi, shuboisdan ham frazeologik ma'no tilda o'ziga xos ma'no hisoblanadi. Frazeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi. Frazeologik iboralarni turli tomonidan o'rganish va unga har tomonlama yondashish, uning xususiyatlarini ochish, umumlashtirish yangidan-yangi iboralar hisobiga tilimizni boyitish uchun xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova, Z. V. (2021). ABOUT COMMON WORDS IN UZBEK AND TAJIK LANGUAGES, THEIR SEMANTICS. Theoretical & Applied Science, (5), 101-104.
2. Alimova, Z. V. (2019). Borrowings –linguistic phenomena. Philadelphia, ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (72), 367-370.
3. Alimova, Z. (2021). The role of borrowings in the growth of the language vocabulary.
- AJMR: Asian journal of multidimensional research. Vol 10, Issue 3, March, 2021.
4. Vakhobovna, A. Z., & Xayrulloevich, F. X. (2022). About Borrowing Phrazeological Units and their Study in Uzbek Language. International Journal of Culture and Modernity, 14, 61-67.
5. ALIMOVA, Z. (2018). On the Uzbek loan-words with prefix no-from the Persian-Tajik languages. Scientific journal of the Fergana State University, 1(5), 109-112.

- 6.Rahmatullayev Sh.“O‘zbek frazeologiyasining ba“zi masalalari” nomli monografiyasi. Toshkent-1966 y. 264 bet.
- 7.Tursunova N. Frazemaning til birligi maqomi xususida // Farg.,ona davlat universiteti Ilmiy xabarlar. –Farg.,ona, 2020. –No6. –B. 235-238. (10.00.00; № 20).8.Tursunova N. On the status of the linguistic unit of the phrase // International journal of innovative research in.

## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA PRAGMASTILISTIK MAZMUNNI IMPLISIT IFODALASH VOSITALARI

**G'ulomova Bahora G'ofurjon qizi**

*Samarqand Davlat chet tillar instituti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Hozirga kelib ommaviy axborot vositalari (*OAV*) va ijtimoiy tarmoqlar orqali olinadigan axborotlar har bir inson hayotida doimiy ehtiyojga aylandi. Bu esa *OAV*larning yagona maqsadi axborot tarqatish degan fikrni anglatmaydi. Shunga ko'ra, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotimizda tutgan o'rni va asosiy funksiyalarini tushunish zarurati tug'iladi. Quyida ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotga, inson va umuman jamiyat rivojlanishiga ta'siri kuchayib borishi, shuningdek, ushbu ta'sirni samarali boshqarish zarurati mavzusiga murojaat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** *OAV*, axborot, dezinformatsiya, reklama, TV dasturlar, ma'lumotlar, mualliflik nuqtai-nazari.

Ommaviy axborot vositalarining zamonaviy jamiyatdagi o'rni ularning hozirgi voqeя va jarayonlarga tezkor munosabatda bo'lishi va ularni efirga uzatish qobiliyati bilan belgilanadi. Qisqa vaqt ichida jamiyat barcha ommaviy axborot vositalari sodir bo'layotgan voqealarga bir xil baho beradigan holatdan turli ommaviy axborot vositalarida bir xil haqiqatga qarama-qarshi qutbli baho berishgacha bolgan tez yo'lni bosib o'tdi. Bugungi kunda turli ommaviy axborot vositalarida (televiedenie ko'rsatuvlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda, gazetalar va boshqalar) qandaydir "psixotrop qurol" ko'pincha tilga olinadi, go'yoki bu qurol sirli kuchlar tomonidan jamiyatga ta'sir qilish uchun foydalilaniladi. Ammo, aslida, bu qurol dunyodagi eng qadimiy qurollardan hisoblanadi, uning nomi axborot ta'siridir. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish jarayonida jamiyatga axborotni joriy etishning o'ziga xos usullari ishlab chiqilmoqda: dezinformatsiya, aldash va niqoblash usuli; sukunat; ayyor statistika; "namunaviy so'rovlar"; tushunchalarni almashtirish; ona tilini yo'q qilish; mubolag'a (pashshadan fil yasash); "umumiyl fikr"ga taqlid qilish; hodisalar va jarayonlarga bilvosita bosim va boshqalar. Ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda axborot tarqatish juda oson bo'lib bormoqda. Biror jamiyatga biror axborotni singdirish uchun shu jamiyatdagi ommabop *OAV*larni va ijtimoiy tarmoq sahifalarini yollash kifoya qilmoqda. Xorijiy so'zlar, iboralar, maqollar, qadriyatlar, turmush tarzi elementlari kundalik hayotga intruziv tarzda kiritilmoqdi, chet el tovarlari reklamasidan foydalilaniladi, begona mezonlar va stereotiplar qo'llaniladi. Bu jarayonning ilhomlantiruvchilari, mijozlari yaxshi tushunib turibdiki, til va madaniyatni yo'q qilsangiz, millatni, xalqni o'dirirasiz. Bugungi kunda televiedeneda rivojlanayotgan, ma'rifiy va intellektual dasturlarning yetishmasligi yoki mavjudlarini ham kerak auditoriyalarga yetib bormayotganligini aytish mumkin. Deyarli barcha dasturlar: